

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING IJROCHILIK MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

*Raxmonberdiyeva Surayyo Mirganiyevna*

*Nizomiy nomidagi*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quvchisi*

*raxmonberdiyevasurayyo@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa mashg'ulotlarida bolalar cholg'u asboblarida ijro etish faoliyati bolalar uchun juda qiziqarli jarayonlardan biri ekanligi va bolalarning ijrochilik, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi, asarlarga jo'r bo'lish orqali musiqaning xarakter va obrazlarini chuqurroq his etishga, kichik bog'cha yoshidan boshlab bolalarni eshitish qobiliyatini, xotirasi, tafakkuri va diqqatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etuvchi faoliyat turlaridan ekanligi haqida so'z boradi

**Kalit so'zlar:** Shaxs, idrok, tinglash, ritm, estetik, hissiyot, cholg'u, diqqat, ohang, emotsional.

**Аннотация:** В статье деятельность по игре на музыкальных инструментах в дошкольных образовательных организациях является одним из самых интересных процессов для детей, развития исполнительских и творческих способностей детей, путем сопровождения произведений к более глубокому прочувствованию персонажей и образов музыки. , небольшой сад Говорят, что это один из видов деятельности, положительно влияющий на развитие слуха, памяти, мышления и внимания детей с самого раннего возраста.

**Ключевые слова:** Личность, восприятие, слушание, ритм, эстетика, чувство, инструмент, внимание, мелодия, эмоциональность.

**Abstract:** In the state, the activity of playing musical instruments in preschool educational organizations is one of the most interesting processes for children, the development of political and creative abilities of children, a way to promote production to a greater sensitivity to the character and images of music. , small garden It is said that this is one of the activities that has a positive effect on the development of hearing, memory, thoughts and attention of children from a very early age.

**Key words:** Personality, perception, listening, rhythm, aesthetics, feeling, instrument, attention, melody, emotionality.

Shaxs rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan va madaniyatini yuksaltiradigan muhim omillardan biri musiqiy tarbiya hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ertangi kun taraqqiyoti egalari bo'lmish bolalarni to'g'ri va

ma'naviy boy, tarbiyali shaxs sifatida tarbiyalash xozirgi kunning dolzarb vaifalardan biridir. Musiqa inson ichki dunyosining hissiyotli tomonlari bilan birga ma'naviyat olamini butunligicha ifoda etib, uning aqliy va iroda qudratini, yaxlit qiyofasini yarata oladi. U ruhiy tizim xususiyatlarini ifodalash, milliy ruh holatlarini vujudga keltirish imkoniyatiga ham ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy tarbiya — bu bir aniq maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolani estetik, axloqiy, aqliy rivojini amalga oshirish, bolani shaxs sifatida tarbiyalash, uni dunyoqarashini kengaytirish, o'z iqtidorini namoyon qila olishga, estetik jihatdan musiqani tushunishga, unga ijodkorona yondasha olishga o'rgatishdir. Musiqa yordamida bolaning badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirib, muhabbatni tarbiyalanadi, musiqiy qobiliyatlarini o'stirib, musiqiy didni esa shakllantirilib, hissiyotini yanada boyitib boriladi.

Musiqa insonni xushfazilatli, samimiy, ziyrak, ko'ngilchan, yuksak ahloq, madaniyat hamda ma'naviyat egasi qilib shakllantirishda katta imkoniyatlar taqdim etadi. Bundan tashqari, musiqa bolalar ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning eshitish qobiliyati, ko'rish, xotirasi, tafakkuri va diqqati rivojlanadi. Insonning kamolga yetishida musiqaning o'rni taraqqiyotning barcha bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lib kelgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar musiqa madaniyatini tarbiyalashda musiqa faoliyatlarining o'rni benihoyat katta. Mahg'ulotlar jarayonida imkon qadar ko'proq musiqiy faoliyatlardan unumli foydalanish orqali bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. Ayniqsa musiqa mashg'ulotlarida bolalar cholg'u asboblarida ijro etish faoliyati qiziqarli jarayonlardan biridir. Bu faoliyat bolalarni ijodkorlikka undaydi. Bolalar cholg'u asboblarida ijro har bir bolani qiziqtiradi, asboblarda ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakter va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga mos emotsional tuyg'ular hosil qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bolalar cholg'u asboblarida ijro etishga o'rgatish faoliyati bolalarning jamoaviy ijrochilik qobiliyatini rivojlantirib, kichik bog'cha yoshidan boshlab bolalarni eshitish qobiliyatini, xotirasi, tafakkuri va diqqatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etuvchi faoliyat turlaridan biridir. Mashg'ulot jarayonida faoliyatning ushbu turidan foydalanish – bolalarning badiiy bilim va tajribasini boyitib, ularning ijrochilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga qaratiladi.

Bolalar cholg'u asboblarida ijro etish mustaqil faoliyat sifatida o'rta guruhlardan boshlab o'tiladi. Kichik guruhdan boshlab cholg'u asboblariga o'rgatishning ilk ko'nikmalari shakllantirib boriladi. Bu yoshdagi bolalarni shiqildoqlar, qo'ng'iroqchalar ijrosi juda qiziqtiradi. Bolalar shiqildoqlarni shiqillatib undan zavqlanadilar. Musiqa rahbarining ijro etgan asariga bolalar shaqildoqlar yordamida jo'r bo'lishligi, bu yoshdagi bolalarda cholg'u asboblariga bo'lgan

qiziqishni oshiradi, ijro ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Bolalar cholg'u asboblarida ijro etish musiqa asarlarini diqqat bilan tinglash, musiqaning xarakterini his etish musiqa cholg'u asboblarini farqlashga, tovush balandligini bilishga o'rgatadi.

Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Dastlab bolalar kuyni diqqat bilan tinglab, musiqiy asarni tahlil qiladilar.
2. Turli musiqiy-ritmik harakalar yordamida kuyni ritmik his etadilar. So'ngra qo'l yoki oyoq harakatlarini bajarib kuyni xotiralarida saqlab qoladilar.
3. Musiqiy-ritmik harakatlar orqali jo'r bo'lishni aniq bajara olgan bolalarga kuychan bo'lmagan shovqinli musiqa asboblarida kuyga jo'r bo'lishga ruxsat beriladi.
4. Keyinchalik esa passiv bolalar cholg'u asboblarini chalishga jalb etiladi.
5. Bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish, grafik ko'rsatmalar, rasmlarga qarab kuy ijro etish bog'cha bolalarining musiqiy ijodkorligini oshiradi

Bolalar bog'cha davrining oxirida:

- Bolalar cholg'ularining nomlanishini;
- Musiqa cholg'ularining jaranglanish xarakterini;
- Bolalar cholg'ularining ijro yo'llarini;
- Musiqa cholg'ularidan foydalanishni bilishlari zarur

Bolalar bilishi zarur bo'lgan ijro usuli:

- ❖ Ijro usuli;
- ❖ Ansamblda ijro;
- ❖ Oddiy dinamik bo'yoqlardan foydalanish;
- ❖ oddiy, kichik qo'shiqlarni yakka ijro etish

Qo'shiq kuylash, musiqa tinglash va musiqaviy ritmik harakatlar bajarish faoliyatlarida bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish orqali faoliyatlarning o'zaro bog'liqligi orqali muhim ahamiyatga ega. Qo'shiq kuylash faoliyatida bolalar cholg'ular yordamida jo'r bo'lishlari qo'shiqni oson o'zlashtirishiga, uning tempi, xarakterini farqlashga, qo'shiq so'zlarini tez yodlashlariga, umuman olganda qo'shiq kuylashga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Musiqa tinglash faoliyatida bolalar cholg'ular yordamida jo'r bo'lishlari bolalar qo'shiqni kuydan ajrata olishga, musiqaning xarakterini his etish, tovush balandligini bilishga va tinglagan asarlarini uzoq muddatgacha yodda saqlashlariga yordam beradi. Musiqaviy-ritmik harakatlar bajarish faoliyatida esa bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish bolalarni ritmni his qilishga, harakatlarning mushtarakligiga va uni aniq ijro etishga o'rgatadi. Bolalar musiqa cholg'u asboblarida ijro, ayniqsa musiqiy ijodiy rivojlanishi past bolalar uchun nihoyatda foydalidir. Bolalar cholg'u asboblarida ijro etish barcha bolalarning kelajakda ancha murakkab cholg'u asboblarini o'zlashtirishlariga yaxshi tayyorgarlik vazifasini o'taydi.



Mashg‘ulotlarda bolalar cholg‘u asboblarida chalish faoliyatini samarali amalga oshirish natijasida bolalar kichik hajmdagi o‘zbek xalq kuylaridan boshlab, kattaroq asarlargacha shaqildoqchalar, doirachalar va rumbalarda turli ritmik usullarni chalishni o‘rganadilar. Barcha cholg‘ular toza, tiniq, yoqimli sado berishi, tashqi ko‘rinishi bilan bolalarning diqqatini jalb etishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar cholg‘u asboblarida ansambl hosil qilib kuy ijro etish bolalarda musiqaga yanada qiziqish uyg‘otadi, natijada ularning musiqiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Shu bois, musiqa mashg‘ulotlarida faoliyatlarning boshqa turlari qatori bolalar cholg‘u asboblarida chalish qismiga ham jiddiy e‘tibor berish talab etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki maktabgacha ta‘lim tashkilotida ilk yoshidan boshlab bolalarda cholg‘u ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirib boorish kelajakda umumta‘lim o‘rta maktablarida bolalarga cholg‘u ijrochilik malakalarini rivojlantirishga zamin bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida uzluksiz ta‘limni rivojlantirishning ilk bosqichlaridan biridir

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonliginingroli”-T.O‘zbekiston, 2017y
2. Shukurova, N. G. (2021). COMPUTER TECHNOLOGY IN MODERN MUSIC EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 1086-1089.
3. Shukurova, N. Pedagogical and Psychological Fundamentals of Teacher Professional Competence. *JournalNX*, 679-681.
4. G'ayratovna, S. N. (2022). THEORETICAL MUSICAL SCIENCE AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 154-159.
5. SHUKUROVA, N. G. MUSICAL SCIENCE AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый"*, (48), 528-530.
6. Raxmonberdiyeva, S. (2023). MUTATSIYADAVRIDA O‘QUVCHILAROVZINITARBIYALASHDAVOKALPEDAGOGIKASIUSLU BLARININGAHAMIYATI. *ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ*, 1(1), 142-145.
7. Raxmonberdiyeva, S. (2023). XOR BO‘LIB KUYLASHDA VOKAL XOR MALAKALARINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 158-162.
8. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). OQUVCHILAR ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING TUTGAN ORNI. *Интернаука*, (1-3), 67-69.

9. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). MUSIQA DARSLARIDA BOLALARNING MUSIQIY IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI. *Интернаука*, (19-6), 15-16.
10. Raxmonberdiyeva, S. (2022). MTT DA BOLALARNI MAQOM ASARLARI TINGLATISHGA O‘RGATISH VA UNI IDROK QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 489-494.
11. Surayyo, R. (2023). MUSIQIY QOBILIYATLAR RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(5), 157-160.
12. Karimova, D. A. (2023). Musiqa o‘qitish metodikasi: boshlang‘ich sinflarda musiqa tinglash faoliyati. *Science and Education*, 4(3), 389-394.
13. Karimova, D. (2023). METHODOICAL ANALYSIS OF LONDON SCHOOL IN MUSIC TEACHING TECHNOLOGY. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 43-47.